



**SHE'RIYATDA VATANPARVARLIK VA MA'NAVIY  
QADRIYATLARNING BADIY IFODASI TALQINI (HALIMA  
XUDOYBERDIYEVA IJODI MISOLIDA)**

*Ibragimova Mashhura Mahmudjon qizi*

*Urganch davlat universiteti Filologiya va  
san'at fakulteti 1-kurs talabasi*

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada adabiyotning inson qalbiga ta'siri, uning ma'naviy hayotdagi o'rni hamda she'riyatning inson ruhiyatini boyitishdagi ahamiyati yoritilgan. Halima Xudoyberdiyeva ijodi, xususan "Unutmang" she'ri misolida Vatan muhabbati, fidoyilik va insoniy burch masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, she'riyatning insonni ma'naviy kamolotga yetaklovchi kuch ekani xulosa qilinadi.

*Kalit so'zlar:* Adabiyot, she'riyat, Vatan, ma'naviyat, inson qalbi, fidoyilik, burch, Halima Xudoyberdiyeva

*Annotation.* This article explores the influence of literature on the human soul and its role in spiritual development. The poetry of Halima Xudoyberdiyeva, particularly the poem "Unutmang," is analyzed to highlight themes of patriotism, devotion, and moral responsibility. The study concludes that poetry serves as a powerful means of spiritual enrichment and personal growth.

*Keywords:* Literature, poetry, homeland, spirituality, human soul, devotion, duty, Halima Xudoyberdiyeva

*Аннотация.* В данной статье рассматривается влияние литературы на внутренний мир человека и её роль в духовном развитии. На примере творчества Halima Xudoyberdiyeva, в частности стихотворения «Unutmang», анализируются темы патриотизма, преданности и человеческого долга. Делается вывод о том, что поэзия является важным средством духовного обогащения личности.



*Ключевые слова: Литература, поэзия, Родина, духовность, душа человека, преданность, долг, Халима Худойбердиева*

Adabiyot - butun bir dunyoni o'zida aks ettira oladigan, kishi zo'r e'tibor berib qaraganida asliyatini ko'ra oladigan ko'zgudir go'yo. Har gal unga boqqanimizda yangidan yangi qalblarni, turfa xil olamlarni ko'ramiz. Bir qarashdan, bir vaqtning o'zida bir nechta olamlarda, turfa xil hayotda yashash imkonsizdek ko'rinadi. Aslini olib qaralganda esa adabiyotni o'qimagan, uning sehrli so'zlari-la do'st tutinmagan insongina bir hayotda - faqat o'zining hayotidagina yashaydi. Unga oshno qalb esa necha asar o'qigan bo'lsa, shuncha hayotda yashaydi. Ha, badiiy asar mutolaasi insonga yana bir hayotda yashash imkonini beradi...

Ijod ahli har bir millatning g'ururi, iftixori sanaladi. Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek. agar biz Vatanimiz dovrug'ini dunyoga tarannum etmoqchi, uning beqiyos tarixini va yorqin kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni qadrlamog'imiz darkor. Zero, "Adabiyot yashasa, millat yashaydi",- deganlar ulug' jadid bobomiz Abdulhamid Cho'lpon. O'zbek xalqini tuprog'idan tortib yaprog'igacha shoir (yaratuvchi, ijod qiluvchi ), deyishadi. Shunday ekan, bu xalqning sevimli shoir-shoirasi, buyuk yozuvchisi-yu dramaturgi bo'lish qanchalik sharaflil va mas'uliyatli ekanligini anglagan bo'lsak kerak. Mana shunday vazifani sidqidildan ado etgan, rostgo'ylik va samimiyatni o'ziga kasb deb bilgan, " Ich-ichidan yo'lbars o'kirib, sirdan mayin jilmayib" Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan shoirimiz Halima Xudoyberdiyeva o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega.

She'r o'qish hamma davrda ham insonlar uchun ma'naviy ehtiyoj sanalgan. Shunisi hayratlanarliki, she'r unga oshno qalbgaga bag'ridagi butun sir-asrorini, zamirida neki bor - hamma-hammasini oshkor etadi. Buni o'zim bir nechta marotaba kashf etganman: men har gal she'r o'qiganimda qaytadan dunyoga kelgandek bo'laman. Go'yoki, she'r - mening katta opam-u, u meni sirli ravishta go'zal gulbog'larga, sarhadsiz dengizlarga, ilohiy firdavsiga yetaklab ketmoqda... She'rsiz qalbni esa hayotning tuganmas tashvishlari-yu, turli ommaviy axborot vositalari,



internet o'yinlari allaqanday "tole qarg'agan" yerlarga eltmoqda. Atoqli adibimiz, o'zbek adabiyotining yana bir yetuk namoyandasi Maqsud Shayxzoda aytganidek,

" She'rsiz qalblarga achinaman men,  
Ularda na tonglar kunduzin boshlar,  
Na oqshom yulduzlar ufqin ochar keng,  
Na bahor chog'ida sayraydi qushlar..."

She'riyatga qat'iy talablar qo'yilganligi hammamizga ma'lum. Ammo, Nurboy Jabborov fikrlariga hamohang tarzda ayta olamanki, she'rda samimiyat, chin tuyg'ular tarannumi va izhori dil bo'lmasa, har qanday "qoidali" she'r ham yurakka yetib bormasligi mumkin. Shunday ekan, qo'lga qalam olgan kimki bor, dastavval, shoira Halima Xudoyberdiyevadan samimiyatni, shijoatni, chinlikni o'rganishi kerak, nazarimda.

Deyarli barcha adabiyot namoyandalarining ijodida Vatan mavzusi yetakchilik qiladi. Zero, Vatan muhabbati ularning qo'lga qalam tutqazgan bo'lsa, ajab emas. Jumladan, Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida ham Vatan bosh mavzudir. Uning " Unutmang" nomli she'ri shoiraning Vatanimizga bo'lgan chin muhabbati ummonidan bir tomchidir, desak, yanglishmaymiz.

Yelkam xalqim yelkasiga tegib turmog'i uchun,  
Boshim xalqim ko'lkasiga egib turmog'im uchun,  
Unga qarshi nima kelsa yengib turmog'im uchun,  
Mendan qay ish lozim bo'lsa,  
Barchasiga tayyorman!

Bir qarashdan, mavzusiga tayanib she'rni bevafo yorga murojaat yoki eslatma tarzida yozilgan, deb qabul qilish mumkin. Aslida esa she'rning har misrasida Vatanimizga, ona xalqimizga bo'lgan o'tli muhabbat ufurib turibdi. Shoira mazkur satrlari orqali xalqimiz bilan bir tan-u jon bo'lib, uning taraqqiyotga erishishida yelka tutib berajagini so'z bilan ifoda etgan. Yigit kishiga janglarda g'ururi, or-nomusi qalqon bo'lsa, vatanparvar shoiraga " unga qarshi nima kelsa, yengib turmog'i uchun" Vatanga bo'lgan samimiy muhabbati qalqondir.

Dardiga malham bo'layin, xotirin kuchlantiray,



Har farzandini ichga tortayin, ichlantiray,  
Har farzandini yurtga bog'layin, burchlantiray,  
Mendan qay ish lozim bo'lsa,  
Barchasiga tayyorman!

Ushbu satrlarda jonfidolik, shijoat, jasorat, matonat va boshqa tuyg'ular saf tortib, Vatanimizning har bir farzandini birdamlikka chaqirmoqda. Shoira yurtdoshlarimizning Vatan oldidagi burchini yanada chuqurroq his etib, uning rivojiga hissa qo'shishlarini xohlayapti.

Jujuqlarga aytgim kelar, qayonlarni ko'zlaysiz,  
Oh, zohirga o'ch bolam, siz ayonlarni ko'zlaysiz,  
Ammo bu yurt, sirli yurtdir, sizam sirli bir naysiz,  
Mendan qay ish lozim bo'lsa,  
Barchasiga tayyorman!

Jujuq - bu shevaga xos so'zlardan biri sanalib, " yosh bola", " go'dak" degan ma'noni anglatadi. Ijodkorning yana bir istagi - ertamiz egalarining dilida nima bor - shuni bilishdir. Yoshlarning yashirin narsalarga, voqealarning zohiriyatiga, botiniga, tub mohiyatiga qiziqishlari ayon. Ammo adiba Vatanimizning o'zini sir demoqda, shunday ekan, yoshlar o'z qiziqishlarini unga yo'naltirmog'i darkor.

Siz quyoshsiz, balandlangu botar yerni unutmang,  
Ildizdansiz, tag'in ildiz otar yerni unutmang,  
Turkistonday qaytib kelib yotar yerni unutmang,  
Mendan qay ish lozim bo'lsa,  
Barchasiga tayyorman!

Vatanimizni ko'kka ko'tarsak, u bizni o'zidan-da yuqoriroqqa ko'tarishga harakat qiladi. Mana shunday paytda esa odamlar qayerdan kelganligini va qayoqqa ketajagini esda tutgan holda ish ko'rishi maqsadga muvofiqdir...

Vatanimizni rivojiga hissa qo'shish uchun ayni damda vatandoshlarimiz neki bor imkonida - hammasini qilmoqda. Sevimli shoiramiz esa yurtimiz ravnaqi uchun " kunduz yurib yozdi, tun turib yozdi".



Insonlar bir-birlarini ma'lum bir ijobiy xislatlari uchun yaxshi ko'rishadi - birovlar qilgan yaxshiliklari uchun, birovlar go'zal fe'l atvori va xulqi uchun, yana birovlar esa Alloh uchun sevib ardoqlashadi bir-birlarini. Men esa Halima Xudoyberdiyevani Vatanimizni ta'rifga sig'mas darajada sevganii uchun yaxshi ko'raman. Chindan ham, u Vatanimizga bergan e'tibori, ehtiromi, e'tirofi uchun sevsang sevigani arziydi...

Yo'q, hech sizga yetmasin ozor,  
Tushunaman - yillar, andisha...  
Faqat sizga aytmoqdim oshkor-  
Siz yoqqansiz menga hamisha.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Halima Xudoyberdiyeva. Tanlangan asarlar. – Toshkent.
2. Maqsud Shayxzoda. She'rlar to'plami.
3. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.
4. Abdulhamid Cho'lpon. Asarlar.
5. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent.